



**XORAZM QISHLOQLARIGA OID KANSELARIYA HUJJATLARI**

*S.Davletov UrDU, Dsc.prof*

*R. Ro'zmetova UrDU magistranti*

Xorazm vohasi tarixdan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishida muhim o'rin egallagan. Xorazm vohasining, xususan Xiva xonligining milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rnini o'rganish dolzarb mavzu sifatida katta ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mintaqasida o'z hududi ega bo'lgan Xiva xonligining ma'muriy tuzilishini o'rganish biz uchun muhim. Ma'muriy tuzilishdagi eng quyi bo'g'in qishloqlardir.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan viloyat va machitlarga bo'lingan. Viloyatlarni hokim yoki noiblar idora qilsa, machitlar va qishloqlarni eng boy va nufuzli oqsoqollar idora qilar edi. Xiva xonligida qishloqlarning barcha ishlari mirob va imomlar qo'lida bo'lgan<sup>1</sup>. Xiva xonligida qishloqlarning o'rni muhimdir. Nafaqat xonlik davrida balki bugungi kunda ham dehqonchilik mahsulotlarini xalqqa yetkazib beruvchi hudud bu qishloqdir. Ammo xonlik davriga nazar tashlasak, davlat daromadlarining deyarli 90 % qishloqlardan, dehqonchilik sohasidan keladi. Chunki xonlikning birdan-bir boyligi yer edi. Asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lgan dehqonlar ham qishloqlarda istiqomat qiladi.

Xiva xonligining qishloqlari to'g'risida ham kanselariya ma'lumotlari mavjud bo'lib, bu ma'lumotlar orqali qishloqlarda mavjud bo'lgan xo'jaliklar, a'lolar, avsatlar, adnolar, haqida ular to'lagan soliqlar haqida aniq faktlarga ega bo'lamiz. Shunday malumotlarni xonlik davridagi rasmiy hujjat - 34 daftar misolida ko'rishimiz mumkin.

Xiva xonligi kantselariya hujjatlari orasidagi 34-daftar alohida o'rin tutadi<sup>2</sup>. 34-daftar har bir varag'i yozuv daftarining ¼ bo'lagidan kattaroq qalin qog'ozdan iborat, qoramtir yashil muqovaga solingan. Bu daftar 79 varaqdan iborat. Daftarda Xiva xonligidagi qishloqlarning nomlari va quyi ma'muriy hududlar bo'lgan masjidlarining nomlari yozilgan. Bu daftarni o'qishda shuni nazarda tutish kerakki, daftarning o'zida faqat raqamlar grafa holidagina yozilgan, ayrim joylarda esa, so'zlar satr holidagina bitilgan. Bu daftardan quyidagi statistik ma'lumotlarni olishimiz mumkin: Juvorxos qishlog'ida 10 ta masjid qavmi bo'lib, unda 10 tanobdan ortiq yeri bor xo'jalik(a'lo)lar 20 ta, 10 tanobgacha yeri bor xo'jalik(avsat)lar 18 ta, 5

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Хива хонлигида феода­лер эга­лиги ва дав­лат тузи­ли­ши. –Тошент:Ўздавнашр,1959. 326-б

<sup>2</sup> Йўлдошев М. Хива хонлигида феода­лер эга­лиги ва дав­лат тузи­ли­ши. –Тошент:Ўздавнашр,1959. 101-б



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tanobdan kam yeri bor xo'jalik(adno)lar 55 tani tashkil etib, ular jami 155 tilla soliq to'laganlar. Kartib ichar qishlog'ida 5 ta masjid qavmi mavjud bo'lib, 10 tanobdan ortiq yeri bor xo'jalik(a'lo)lar 5ta, 10 tanobgacha yeri bor xo'jalik(avsat)lar 12 ta, 5 tanobdan kam yeri bor xo'jalik(adno)lar 32 ta, ular to'lagan jami soliq 71 tillani tashkil etgan. Bog'ot qishlog'ida esa 5 ta masjid qavmi bo'lib, unda 10 tanobdan ortiq yeri bor xo'jalik(a'lo)lar 12 ta, 10 tanobgacha yeri bor xo'jalik(avsat)lar 27 ta, 5 tanobdan kam yeri bor xo'jalik(adno)lar 40 ta, ular to'lagan soliq 130 tillani tashkil etadi. Pishkanik qishlog'idagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu hududda 9 ta masjid qavmi, unda a'lolar 20 ta, avsatlar 20 ta, adnolar 88 ta va ular to'lgan jami soliq 195 ta tillani tashkil etgan; Gandimkon qishlog'ida 2 ta masjid qavmi bo'lib, unda a'lolar 1 ta, avsatlar 5 ta, adnolar 11 ta, ular to'lagan jami soliq 24 tillani tashkil etgan; kenagas qishlog'ida 6 ta masjid qavmi mavjud, unda a'lolar 12 ta avsatlar 42 tani, adnolar 93 tani va ular to'lagan soliq 207 tillani tashkil etgan. Nuxos qishlog'ida 5 ta masjid qavmi mavjud bo'lib, unda a'lolar 27 ta, avsatlar 45 ta, adnolar 60 tani tashkil etadi, ulardan olinadigan jami soliq 231 tillani tashkil etgan. Demak, qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholi toifalarga ajralgan, har bir toifa qancha tanob yerga ega ekanligiga munosib tarzda soliqqa tortilgan.

Buni arxiv hujjatlari tasdiqlaydi. Xiva xonligida Juryon, Go'ja, Indavak, Xistiyon, Arvuk, Jindiyon kabi yirik qishloqlar mavjud bolib, arxiv hujjatlari ularda yashagan ota-bobolarimizning XIX asr o'rtalarida va XX asr boshlarida er, suv mulki, soliq yoki navkar berish kabi ijtimoiy munosabatlarni aniqlashga yordam beradi.

Juryon qishlog'i 1843-1867 yillarga doir tarixiy hujjatlarda o'z atrofidagi barcha machitqavmlar orasida eng salmoqlisi hisoblangan va yiliga 109 tilla soliq to'lagan, 36 navkar, 133 qazuvchi bergan, xo'jalik-honadonlar soni 70 dan ortiq bo'lgan.

Ma'lum bo'ladiki, qishloqdagi Ashir, Sho'rqa'l'a, Jo'jiqlar va Oyoq Juryon elatlari ham yagona Juryon nomi bilan atalgan. To'lanadigan soliqlar miqdori bo'yicha Go'ja ikkinchi, Arvuk uchinchi va Xistiyon qishloqlari to'rtinchi o'rinlarni egallagan. Kelib chiqishi arab yoki forslardan bo'lgan xo'jalar, xon amaldorlari, eshonlar hamda yetim-yesirlar er solig'idan ozod etilganlar. 1843-1867 yillarda Juryon aholisi 234 xonadonda istiqomat qilganlar. Har bir oilada o'rtacha 10 jondan yashagan deb hisoblasak, qishloqda taxminan 2300-2400 kishi yashagan. 25 oila xon tomonidan turli soliq va to'lovlardan ozod etilgan.

"Soliq to'lash tartibi" - deb yozadi XX asr boshlarida vohaga kelgan agronom O.Shkapskiy "Amudaryo ocherklari" kitobining 105-betida, "foydalanayotgan yerning miqdoridan qat'iy nazar uch toifaga bo'linadi. Masalan: 10 tanob va undan



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ziyod a'lo erli xo'jaliklar, 5-10 tanob avdot (o'rta) erli va 1-5 tanob adno - sho'rxok yomon erli dehqonlarga ajratilgan<sup>3</sup>.

50-100 tanobdan ziyod erlilar soliqlardan butunlay ozod etilganlar. Ular uchun soliq ijrochidan undirib olinavergan. Akademik M. Yo'ldoshevning "Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi" nomli monografiyasida ko'rsatilishicha, 1870 yilda Xorazm qishloqlarida 23011 xonadon bo'lgan va ular har yili 40 993 tillo pul er solig'i to'lab kelganlar. Dehqonchilikda qullar mehnatidan keng foydalanilgan<sup>4</sup>. Masalan: Hijriy 1266 yilda (1849-1850) Qizil Taqir qishlog'ida ishlatilgan qullar dehqonchilikdan 6 ming botmon (har botmon - 20kg. teng) don olingan. Hammasi bo'lib o'sha joyda 18 310 botmon g'alla yig'ib olingan. Demak, etishtirilgan hosilning uchdan bir qismi qul mehnatini ekspluatatsiya qilish evaziga olingandir.

1873 yilda rus qo'shinlari bilan Xivaga kelgan Xoroshinning hisobiga ko'ra xonlikning 140 shahar va qishloqlaridagi har ikkala jinsdan bo'lgan qullar 35806 kishi bo'lgan. Xiva tarixchilarning hisobicha qullar 58500 kishi bo'lgan. Ulardan 1500 kishi xonga qarashli edi. Bu qullardan 22500 kishi qullikdan ozod qilinganidan keyin, ular Xiva xonligi tuprog'ida yashab qolgan<sup>5</sup>.

Toshkent Sharq qo'lyozmalari institutining 33-fondida saqlanayotgan bir vaqfnomada Xiva yaqinidagi Indavak qishlog'ida machitlarga qarashli 15, Sadirxos qishlog'ida 17 tanob a'lo er bo'lganligi va ular qullar hamda xudojuylar tomonidan ko'mak (hashar) yo'li bilan ishlab hosil olinayotganligi qayd etiladi. O'sha joydagi ikki elatning soliq daftarlarini chog'ishtirib ko'rilganda quyidagi manzara namoyon bo'ladi.

Jindiyon qishlog'ida 1843 yilda yaxshi yerli 22 xonadon bo'lib, 37 tillo soliq to'laganlar. 1867 yilga kelib Jindiyonda yaxshi erlilar 3 oila bo'lib 23 tillo, Indavakda esa yaxshi erlilar 14 ga tushib qolganlar va 38 tillo soliq to'laganlar.

Ko'rinib turibdiki, soliq undiruvchilar erlarning yomonlashuvini inobatga olmaganlar, natijada yig'ilgan soliq miqdori 23 yil davomida kamaytirilmagan. XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida quyidagi soliqlar rasm bo'lgan:

1. Begor - ishlab berish solig'i. "hashar"
2. Qazuv - 12 kunlik majburiy xizmat.
3. Olgut - bir yo'la olinadigan soliq
4. Solg'ut solig'i
5. Miltiq solig'i - qurol solig'i
6. Uloq tutuv - ot-uloq sayil puli.

<sup>3</sup> О.Шкапский, "Аму-Дарьинские очерки", 105-б

<sup>4</sup> Йўлдошев М. Хива хонлигида феодалер эгаллиги ва давлат тузилиши. -Тошент:Ўздавнашр,1959, 64-б

<sup>5</sup> А. Болтаев, қўлёзма, 81-б



7. Qo'nolg'a-qo'noq solg'uti (mehmon)
8. So'ysun solig'i - jonlig' so'yib osh berish
9. Chopar puli - xabar solig'i (pochta)
10. Tarozi puli - tag-joy solig'i
11. Mirobona - mirob solig'i
12. Darbozabon puli - bozorga kirish puli
13. Otlanuv puli - Shikor yoki safar puli
14. Ipak puli - 1/40 qism zakot
15. Mir tuman - hokim to'ra solig'i
16. Shigovul puli - yo'l puli
17. Qorovul puli - soqchilik haqi
18. Pul solig'i - xazinachi puli
19. Qurubon puli - to'qay puli
20. Mushribona - hosil nazoratchisi haqi
21. Afanak puli - erni bo'sh qoldirgani jarimasi
22. Chuvik puli - (aniqlab bo'madi)
23. Olomon puli - jarima
24. Tutun puli - yong'in xavfsizligi

Xonlikning barcha aholisi kabi juryonliklar ham yuqorida ko'rsatilgan soliqlarni to'lashga majbur edilar.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga tayanib quyidagi ma'lumotlarni keltirishimiz o'rinlidir. Kanselariya hujjatlari orqali biz Xiva xonligidagi feodal xo'jaliklarning daromad manbalari, harajatlari va, umuman, turmushlari tog'risida ba'zi bir ma'lumotlarni olishimiz mumkin.. Chunki feodal xo'jalik Xiva xonligining sotsial-iqtisodiy bog'ini hisoblanadi. Qishloqlarni asosiy yetishtiradigan mahsulotlarini asosan g'alla mahsulotlari tashkil qilgan bo'lib, ular bug'doy, sholi, mosh, zig'ir, kunjut kabi mahsulotlarni yetishtirganlar. Bunga ko'ra, hijriy 1282 milodiy 1865-1866 yilda Siyot mulkining daromadlari quyidagicha: Siyot mulkida 161 botmon bug'doy, 187 botmon - u 10 sari sholi, 27 botmon mosh, 22 botmon zig'ir, 8 botmon kunjut, 19 botmon g'oza yetishtirilgan, Ropanik qishlog'ida yetishtirilgan g'alla 122 botmon-u 10 sari bug'doy, Ropanik bog'idan dahyak va ushr olinmasdan chorak kam 57 tilla kelgan. Sirchali qishlog'ida yetishtirilgan g'allaning miqdori esa 164 botmon bug'doy, 14 botmon g'oza, 10 sari kam 556 botmon jo'xori, boqimonda 309 botmon, 40 ag'ri kam 122 botmon kunjutni tashkil etgan.

Umuman olganda, Xiva xonligida qishloqlar muhim o'rin egallagan, davlatga keladigan daromadlarning ko'pchiligi qishloqlarda yetishtirilgan mahsulotlar





## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

orqali kelgan. Asosiy mahsulot sifatida g'alla mahsulotlari yetishtirilgan. Qishloqlarda qullar ham istiqomat qilgan bo'lib, har bir xo'jalikda ma'lum miqdorda qullar mehnatidan foydalanilgan. Yuqoridagi kanselariya hujjatlari orqali keltirilgan statistik faktlar fikrimizning isbotidir.